

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Dizayn (kostyum) sohasi neologizmlarining tarjima-dagi xususiyatlari	430
I.Xoldarova, X.Erg'oziyeva	
Ona tili darslarida fonetikani o'rgatish orqali orfografik va orfoepik bilimlarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va mashqlarning o'rni	434
K.Turgunaliyeva, D.Mirzayeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi she'rlarning stilistik tahlili	439
Sh.Turg'unov	
O'zbek xalq o'lanlarida etnik mansubiyat ifodasi	442
R.M.Ubaydullayev, U.R.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar maktab o'quvchi yoshlarning morfofunktsional xususiyatlariga bog'liqligini tahlili	447
I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	450
L.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati	455
S.Eshonqulova	
Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida Qo'qon adabiy muhitining o'rni	458
H.Dusmatov, M.Husaynova	
O'zbek latifalarida so'z o'yinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari	468
N.Shavilova	
Rus va o'zbek tillarida paronimlarning tasnifi.....	472
M.Xusanova, M.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir	478
M.Rahimova	
O'zbek tilida leksik nomemalar.....	481
D.Sirojiddinova	
Ingliz tilida modal so'zlar muqobillari haqida umumiy qarashlar.....	484
D.Raximjonova	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari.....	489
U.Eshmuradov	
Til o'rganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til o'rganuvchilar tajribasi.....	493
A.Rasulova	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi	497
G.Odilova	
Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari	500
X.Abdurahmonov	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati.....	504
M.Otaboyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarning o'xshash va farqli jihatlari	508
G.Rozikova	
So'z semantik taraqqiyotidagi o'zgarishlar xususida.....	511
Sh.Siddiqova	
O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda obrazlilikni ta'minlovchi semantik-stilistik faktorlar.....	516
N.Usarova	
Tarjima muammosining nazariy jihatlari	520
K.To'xtaeva	
C1 darajadagi talabalarga ingliz tilini o'qitish muammolari.....	524
Z.Usmonova	
Rey Bredberining "Marsga hujum" ("The martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari.....	531
G.Davlyatova, Sh.Artikova	
Ritorik nutqda pleonastik birliklarning foydalanishi	535

SO'Z SEMANTIK TARAQQIYOTIDAGI O'ZGARISHLAR XUSUSIDA

ОБ ИЗМЕНЕНИЯХ В СЕМАНТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СЛОВА

ABOUT THE CHANGES IN THE SEMANTIC DEVELOPMENT OF THE WORD

Rozikova Gulbaxor Zaylobidinovna¹¹Rozikova Gulbaxor Zaylobidinovna

– Farg'ona davlat universiteti dotsenti, f.f.d

Annotatsiya

Til taraqqiyoti davomida so'z ma'nolarida turli o'zgarishlarning yuz berishi tabiiy jarayondir. Eski turkiy tilda qo'llangan ba'zi so'zlar hozirgi o'zbek tilida ma'lum jihatdan ma'noviy o'zgarishlarga uchragan. Ayrim so'zlarning ma'nosi toraygan, ayrimlariniki kengaygan bo'lsa, ba'zilari o'zi anglatgan ma'noga qarama-qarshi ma'noda ham qo'llangan. Ushbu maqolada til taraqqiyoti davomida so'z ma'nolarida yuzaga kelgan kengayish va torayish hodisalari «Devonu lug'otit turk» asarida qo'llangan bir qator leksemalar misolida yoritildi. Eski turkiy tilda jigit, kəjik, jilki, ciŕip, ɛrŭk, alqış, amach, kəcək, ɛrkək, kōl, qışlaŕ, jaylaŕ, oŕlan kabi leksemalar iste'molda bo'lgan. Til taraqqiyotining keyingi davrlariga kelib mazkur leksemalarning tarkibida ma'lum semantik o'zgarishlar yuz bergan. So'z ma'no taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlar tasniflash, tavsiflash, qiyoslash va lingvistik tahlil usullari asosida yoritildi. So'z ma'nolarini izohlashda bir qator lug'atlarga murojaat qilindi. Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, H.Dadaboyev, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, B.Abdushukurov, Sh.Usmanova, Sh.Egamova, A.Mo'minova kabi olimlarning so'z ma'nosining kengayishi va torayishi yuzasidan bildirgan fikrlari tahlil qilindi, munosabat bildirildi, bu hodisa o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiq obyekti bo'lmagan ta'kidlandi.

Annotatsiya

Это естественный процесс, когда в процессе развития языка происходят различные изменения значений слов. Некоторые слова, употреблявшиеся в древнетюркском языке, претерпели определенные духовные изменения в современном узбекском языке. Значение некоторых слов сузилось, некоторых расширилось, а некоторые стали употребляться в противоположном смысле. В данной статье были освещены явления расширения и сужения значений слов в процессе развития языка на примере ряда лексем, использованных в произведении «Девону луготит тюрк». В старотюркском языке употреблялись такие лексемы, как jigit, kəjik, jilki, ciŕip, ɛrŭk, alqış, amach, kəcək, ɛrkək, kōl, qışlaŕ, jaylaŕ, oŕlan. К более поздним этапам развития языка в составе этих лексем произошли определенные семантические изменения. Такие изменения в развитии значения слова объяснялись на основе методов классификации, описания, сравнения и лингвистического анализа. Для объяснения значений слов использовался ряд словарей. Ш. Рахматуллаев, М. Миртоджиев, Х. Дадабоев, Н. Рахмонов, К. Содиков, Б. Абдушукуров, Ш. Усманова, Ш. Эгамова, А. Муминова, проанализированы мнения, высказанные такими учеными, как о расширении и сужении значения слов, выражена реакция, отмечено, что это явление не является особым объектом исследования в узбекском языкознании.

Abstract

It is a natural process that various changes in the meanings of words occur during the development of the language. Some words used in the old Turkic language have undergone certain spiritual changes in the modern Uzbek language. The meaning of some words has narrowed, some have expanded, and some have been used in the opposite sense. In this article, the phenomena of expansion and contraction of word meanings during the development of the language were highlighted on the example of a number of lexemes used in the work "Devonu lugotit turk". Lexemes such as jigit, kəjik, jilki, ciŕip, ɛrŭk, alqış, amach, kəcək, ɛrkək, kōl, qışlaŕ, jaylaŕ, oŕlan were used in the old Turkish language. By the later stages of the development of the language, certain semantic changes took place in the composition of these lexemes. Such changes in the development of word meaning were explained on the basis of methods of classification, description, comparison and linguistic analysis. A number of dictionaries were used to explain the meanings of the words. Sh. Rakhmatullayev, M. Mirtojiyev, H. Dadaboyev, N. Rahmonov, Q. Sodikov, B. Abdushukurov, Sh. Usmanova, Sh. Egamova, A. Mominova. The opinions expressed by scientists such as on the expansion and narrowing of the meaning of words were analyzed, the reaction was expressed, it was noted that this phenomenon was not a special object of research in Uzbek linguistics.

Kalit so'zlar: semantik taraqqiyot, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, so'z ma'nosining o'zgarishi, leksema, semema, sema, polisemantik birlik, hosila ma'no, differentsiatsiya.

Ключевые слова: семантическое развитие, расширение значения, сужение значения, изменение значения слова, лексема, семема, sema, многозначная единица, производное значение, дифференциация.

Key words: semantic development, expansion of meaning, narrowing of meaning, change of word meaning, lexeme, sememe, sema, polysemantic unit, derived meaning, differentiation.

KIRISH

Til taraqqiyoti davomida so'z ma'nolarida turli o'zgarishlarning yuz berishi tabiiy jarayondir. Eski turkiy tilda qo'llangan ba'zi so'zlar hozirgi o'zbek tilida ma'lum jihatdan ma'noviy o'zgarishlarga uchragan. Ayrim so'zlarning ma'nosi

toraygan, ayrimlariniki kengaygan bo'lsa, ba'zilar o'zi anglatgan ma'noga qarama-qarshi ma'noda ham qo'llangan. Ushbu maqolada til taraqqiyoti davomida so'z ma'nolarida yuzaga kelgan kengayish va torayish hodisalari «Turli davrlarda jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, eng avvalo, uning leksik qatlamida o'z aksini topadi. Buning natijasida tillardagi ayrim so'zlar eskirishi, iste'moldan chiqishi yoki yangisi bilan almashinishi mumkin. Bu tabiiy ko'rsatkich, tilga xos xususiyat sifatida baholanadi. Bunday semantik o'zgarishlarni tadqiq qilish tillar tarixi, tadrijiy rivojlanishi to'g'risida muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

M.Mirtojiyev so'z semantik taraqqiyotini yuzaga keltiruvchi mantiqiy-semantik hodisalar sifatida 1) ifoda, ya'ni ma'no kengayishi va torayishi hodisasi; 2) hosila ma'no yuzaga kelishi; 3) evfemizm va disfemizm kabi jarayonlarni ko'rsatadi [4;6]. Leksik ma'noning kengayishi va torayishi faqat bir leksik ma'no hajmida ekstralingvistik omilga ko'ra sodir bo'ladi [4;112]. Leksik ma'noning kengayishi va torayishi hodisalari haqida Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, H.Dadaboyev, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, B.Abdushukurov, Sh.Usmanova, Sh. Egamova, A.Mo'minova'larning e'tiborga loyiq fikrlari mavjud. Lekin bu hodisa o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiq obyekti bo'lgan emas. So'z ma'no taraqqiyotidagi leksik-semantik o'zgarishlarni tasniflash, tavsiflash, qiyoslash va lingvistik tahlil usullari asosida yoritish mazkur hodisani to'laqonli tahlil etish imkonini beradi.

NATIJALAR

«Devonu lug'otit turk» asarida *jigit* so'zi «har narsaning yoshi» deb izohlangan (Devon, III,7). Demak, bu so'z eski turkiy tilda insondan boshqa narsalarga nisbatan ham qo'llangan. U hozirgi o'zbek tilida faqatgina odam bolasiga nisbatan istifoda etiladi. Ko'rinadiki, *jigit* so'zi XI asrga nisbatan olinganda faqat insonga nisbatan qo'llanishga xoslanib, ma'nosi toraygan. Lekin shu bilan birga, insonga nisbatan qo'llangan mazkur so'z semantikasida kengayish sodir bo'lgan. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da bu so'zning «jinsiy va jismoniy jihatdan voyaga yetgan erkak», «umuman, yosh erkak, yosh kishi», ko'chma ma'noda «er kishi, jasur odam, mard», «qizning ko'ngil qo'ygan kishisi, sevgilisi», «biror harbiy to'daga, guruhga mansub bo'lgan erkak kishi», «o'ziga nisbatan yoshi kichik kishiga murojaat» ma'nolari ko'rsatilgan (O'TIL, II,266-267).

kajik leksemasining DTSda «bug'ularga mansub juft tuyoqli hayvon» va «umuman yovvoyi hayvon» ma'nolari qayd etilgan (DTS, 294). Mahmud Koshg'ariy asarida ham bu leksemaning «aslida yovvoyi bo'lgan har narsa» ma'nosi keltirilgan. Lekin DTSdan farqli ravishda Mahmud Koshg'ariy bu leksemaning qo'llanish doirasini yana ham chegaralaydi, ya'ni u har qanday yovvoyi hayvon emas, balki eti yeyiladigan ohu, bug'u, arxarlarga nisbatan qo'llanilishini ta'kidlaydi. Demak, XI asrga kelib leksemaning ma'nosida torayish kuzatiladi. Shu bilan birga, bu so'zning «kiyik» (Devon, I,213) hamda «tog' echkisi» (Devon, I, 393) ma'nolarini ifodalashi ham e'tirof etiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, leksema sememasidagi «yovvoyi» semasi uning hayvonlardan boshqa narsa-predmetlarga nisbatan ham qo'llanilishiga asos bo'lgan. «Devon»da *kajik cözy'm* «yovvoyi daraxt» ekanligi aytiladi va shunday izoh beriladi: «Har bir narsa ikki xil bo'ladi: xonaki, yovvoyi. Yovvoyisiga *kajik* deyiladi» (Devon,III,114). Yana shuningdek, *kajik* leksemasining *kiwi* so'zi bilan birikib (*kajik kiwi*), «suvda yashashiga ishoniladigan odam shaklidagi bir oyoqli hayvon» ma'nosini ifodalashi ham ko'rsatiladi. Sh.Egamovaning ta'kidlashicha, leksemaning «vahshiy, yovvoyi hayvon» semasi XIV asr obidalarida ham saqlanib qolgan. Polisemantik so'zning ma'no torayishi jarayoniga uchrashi, ya'ni qadimgi turkiy va eski turkiy tilda u ifodalagan bir qator semalarning Navoiy tilida boshqa leksik birliklar tomonidan anglashilishi natijasida faqat bir ma'no – «kiyik, ohu»ni bildirish uchun xoslanganining guvohi bo'lamiz [9;18].

Demak, qadimda «hayvon, jonivor», «yovvoyi hayvon», «eti yeyiladigan ohu, bug'u, arxarlar», «kiyik», «tog' echkisi», «yovvoyi bo'lgan har bir narsa», «suvda yashashiga ishoniladigan odam shaklidagi bir oyoqli hayvon» ma'nolarini ifodalagan *kajik* leksemasi hozirgi o'zbek adabiy tilida faqatgina «quvush shoxli sutemizuvchilar oilasining ohu, bug'u va hokazolar kabi katta bir guruhining umumiy nomi» (O'TIL, II, 364) ma'nosida qo'llanadi. Shuningdek, hozirgi o'zbek tilida bu leksema kiyiko't qo'shma so'zi tarkibida ham mavjud. Kiyiko't «yalpizdoshlar oilasiga mansub, bir va ko'p yillik xushbo'y dorivor o'simlik» (O'TIL, II, 364).

kajik leksemasining «suvda yashashiga ishoniladigan odam shaklidagi bir oyoqli hayvon» ma'nosi mifologiyaga oid qarash bo'lib, qadimda «Gopatshoh, Minotavr, Kentavr, Gavomard, Ganesh (Hindiston) kabi maxluqlar haqidagi afsonalarning paydo bo'lishi totemizm bilan bog'liq, bir-biriga yaqin sharoitda yuzaga kelgan» [7;14]. Manbalarda hamma vaqt suv sohilida o'tirib xudolarga nazr-niyoz qiladigan, tanasining yarmigacha ho'kiz, belidan yuqorisi odam shaklidagi cho'pon Gopatshohning vatani Xorazm ekanligi, Britaniya muzeyida saqlanayotgan Amudaryo

TILSHUNOSLIK

xazinasidagi uzukka uning tasviri ishlanganligi, Gopatshoh kul'ti Eroniylarda suvni ilohiylashtirish bilan bog'liq ekanligi haqidagi farazlar ilgari suriladi [7;11-12].

XI asrda *jilki* so'zi to'rt oyoqli hayvonlarning hammasiga nisbatan qo'llangan (Devon, III, 25). «Bu ot qadimgi turkiy tildagi «bir joyga to'pla»– ma'nosini anglatgan *jil* — fe'lidan -*ki* qo'shimchasi bilan yasalgan. Bu ot asli «keng o'tloqda erkin harakatlanib yuruvchi hayvonlar» ma'nosini anglatgan; ma'noda torayish voqe bo'lib, «otlar podasi» ma'nosini anglatib boshlagan (O'TEL, I, 156). Demak, bu so'z o'zi ifodalagan tushuncha differentsiatsiyasi natijasida faqat «ot» va «otlar podasi» ma'nolarida hayvonning bir turiga nisbatan qo'llanishga ko'chgan, ya'ni uning leksik ma'nosi toraygan.

B.Abdushukurov turkcha *bug'a* va turkcha-mo'g'ulcha *bug'u* so'zlarining etimologiyasi haqida fikr yuritir ekan, A.Yoki va V.Bangning mulohazalariga tayanib, bu so'zlar dastlab turlanishi (modifikatsiya) jihatidan qandaydir kavsh qaytaruvchi yovvoyi hayvon (*bug'uga* oid) nomini anglatgani, keyinchalik esa bo'linib, alohida-alohida hayvon nomini ifodalaganini ta'kidlaydi. *Bug'u* va *buqa* so'zlarining etimologik jihatdan aloqadorligini A.M.Sherbak ham ko'rsatib o'tgan [1;46].

Tillar taraqqiyoti jarayonida so'zlarning ma'no o'zgarishlariga uchrashi tabiiy hol. So'zlarning ma'no jihatdan kengayishi yoki torayishi deyarli barcha tillarda kuzatiladi. Masalan, *deer* so'zi ingliz tilining qadimgi davrlarida har qanday yovvoyi hayvonlar uchun ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda bu so'zning ma'nosi torayib, faqat «*bug'u*», «*kiyik*», ya'ni hayvonning turi ma'nosida qo'llanadi.

Cirip so'zi Mahmud Koshg'ariy asarida «qoramol», ya'ni «shoxli, yirik chorva hayvoni (ho'kiz, buqa, sigir)» (O'TIL, V,340) ma'nosida izohlangan (Devon, I,243). B.Abdushukurovning ko'rsatishicha, bu termin Jamoliddin Turkiyning «Kitob bulg'at» asarida «buqa, ho'kiz» ma'nolarini ham bildirgan, «Tarjumon» obidasida «umuman qoramol» (ho'kiz, buqa, sigir) ma'nosini anglatgan [1;63]. Hozirgi o'zbek tilida u «buzoqlagan urg'ochi qoramol» ma'nosida qo'llanadi (O'TIL, III,493). Demak, mazkur so'z ham til taraqqiyoti davomida ma'no jihatdan torayishga uchragan.

Eski turkiy tilda *epyk* so'zi shaftoli, o'rik, olxo'ri kabi danakli mevalarning barchasi uchun umumiy nom sifatida qo'llangan, ularni farqlash uchun esa belgi bildiruvchi turli so'zlardan foydalanilgan: *epyk* – shaftoli, o'rik, olxo'ri mevalarining umumiy nomi; *mylye epyk* «shaftoli»; *capir epyk* «o'rik»; *qapa epyk* «olxo'ri» (Devon, I,65). Hozirgi o'zbek tilida esa har bir meva o'z nomiga ega, *epyk* so'zi o'rik tarzida qo'llanadi va mevali daraxtning bir turi va uning mevasi nomini ifodalashga xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida ma'nosi toraygan so'zlarga *alqish* «olqish» so'zini ham misol qilib keltirish mumkin. Bu so'z eski turkiy tilda alqish «olqish, maqtash; duo qilish; tabrik; bironing yaxshi xislatlarini eslash» ma'nolarini anglatgan. Hatto uning «payg'ambarga salovat aytish» ma'nosi ham borligini kuzatamiz: *Jalavachqa alqish berril* «payg'ambarga salovat ayt [uni olqishla]» (Devon, I,84). Hozirgi o'zbek tilida mazkur so'zning ma'nosi toraygan bo'lib, u ko'pma'noli so'z sifatida ikki, ya'ni «yaxshilik tilab aytilgan, aytiladigan so'zlar, maqtov, duo» va «mamnunlik, tahsin bildiruvchi qarsaklar» ma'nolarida qo'llanadi (O'TIL, III, 120). Izohdan ko'rinadiki, so'zning «payg'ambarga salovat aytish» ma'nosi hozirgi kunda iste'moldan chiqqan.

Eski turkiy tilda *amach* tarzida qo'llangan omoch so'zida ham ma'no torayishini kuzatish mumkin: *amach* II so'zi qadimda «omoch, bo'yinturuq; dehqonchilik asboblari» (Devon, I,55) ma'nolarida qo'llangan bo'lsa, hozirda u «ulov qo'shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog'och yoki temir asbob» (O'TIL, III,124) ma'nosini ifodalaydi. Bunday leksemalarga misol sifatida «Devon»da qayd etilgan *kacak* so'zini ham keltirish mumkin. Bu so'zga lug'at muallifi «narsaning bo'lagi, parchasi» (Devon, I, 263) deb ta'rif bergan. Bunda har qanday narsaning bo'lagi, bir qismi nazarda tutilgan. Masalan, *bip kacak ammak* – bir parcha non. Hozirgi o'zbek tilida kesak so'zi «qotgan, qurigan loy bo'lagi» ma'nosini ifodalaydi (O'TIL, II, 355). Demak, eski turkiy tilda har qanday narsaning bo'lagi ma'nosida qo'llangan *kacak* so'zining ma'nosi torayib, faqat loy bo'lagiga nisbatan ishlatiladigan bo'lgan. Toshkent shevasida bu so'zning qand so'zi bilan birga (bir kesak qand) ishlatilish holatlari ham kuzatiladi.

MUNOZARA

Tillar tadrijiy taraqqiyotida leksema ma'nosining torayishi ko'p uchraydigan va barcha tillar uchun xos bo'lgan xususiyatlardandir. Qadimda sifat ko'rinishida ishlatilgan, keyinchalik esa otga aylangan ayrim so'zlar borki, ularning semantikasida ham torayish hodisasini kuzatish mumkin. «Bu so'z qadimgi turkiy tilda «er jinsiga mansub kishi» ma'nosini anglatgan er so'zidan -*kak* qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, asli sifat ma'nosini anglatgan, ot ma'nosi keyinchalik yuzaga kelgan (O'TEL, I, 468). Qadimda *epkak* so'zi «har qanday hayvonning va parrandaning erkagi»

ma'nosida qo'llangan bo'lib, xo'roz, ya'ni tovuqning erkagi *эркак мақары*, , urg'ochisi *миши мақары* deb farqlangan (Devon, I,92). *Taqary* so'zi jins ma'nosidagi so'z hisoblanib, «tovuq» ma'nosini anglatgan hamda xo'roz va tovuqlarning har ikkisi teng qo'llangan (Devon,I,234). Hozirgi o'zbek tilida esa erkak so'zi ot turkumiga mansub sanaladi va «erkak jinsiga mansub kishi; erkak» (O'TIL, V, 45) ma'nosida qo'llanadi.

XI asrda *köl* so'zi «hovuz», «ko'l», «to'planib qolgan suv; ko'lmak» va «dengiz» (III, 91) ma'nolarida qo'llangan bo'lib, til taraqqiyoti davomida bu so'z ham semantik differentsiatsiyaga uchragan: «suv saqlash uchun xizmat qiladigan, maxsus qazilgan chuqurlik» (O'TIL, V, 542) hovuz leksemasi bilan; «quruqlikning suvga to'lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi» (O'TIL, II,453) ko'l leksemasi bilan; «okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo'lagi, okeanning quruqlik yoki orol va yarimorollar bilan ajralgan qismi» (O'TIL, I,597) dengiz leksemasi bilan ataladigan bo'lgan. *Köl* so'zining dastlab har qanday suv havzasiga nisbatan qo'llangani, keyinchalik ma'noda torayish voqe bo'lib, daryo, dengizlarni anglatmay qo'ygani mutaxassislar tomonidan ham ta'kidlanadi (O'TEL, I, 225). Demak, hozirgi o'zbek tilida *ko'l* so'zining, yuqorida ta'kidlanganidek, faqat bitta ma'nosi, ya'ni «quruqlikning suvga to'lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi» ma'nosi mavjud.

Tilshunoslikda leksemaning ma'no hajmida tor ma'nodan keng ma'noga qarab siljishning yuz berishi ma'noning kengayishi deb nomlanadi. «Devon»da *қишлоқ* «qishloq» so'zi «qishlanadigan joy» (Devon, I,308), *жайлау* so'zi «yozda turiladigan yer» (III,34) ma'nosida izohlangan. *Жайлау* so'zi qadimgi turkiy tilda «bahor», «yoz» ma'nolarini (asli «yilning issiq qismi» ma'nosini) anglatgan yay otidan -la qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga -g' qo'shimchasini qo'shib yasalgan; keyinchalik so'z oxiridagi g' undoshi v undoshiga almashgan (O'TEL, I,130-131). *жайлау* «yaylov» (Devon, III,236) ma'nosini ham ifodalagan. Bu leksema dastlab «tog'ning tepasidagi o'tloq» ma'nosini anglatgan bo'lib, asosan chorvachilik bilan shug'ullangan turkiylar yoz payti chorva mollarini tog'ning tepasidagi o'tloqlarda, ya'ni jajlag'da boqish uchun o'sha joylarga ko'chib borganlar. Asarda jaj so'zidan yasalgan *jajladī* fe'li qo'llangan bo'lib, *er tag'da jajladī* «odam tog'da yozni o'tkazdi» (Devon, III,210) demakdir. Hozirgi o'zbek tilida *yaylov* so'zi faqat tog'ning tepasidagi «mol boqiladigan o'tloq»ni emas, balki umuman «mol boqiladigan maydon»ni anglatadi. Bunday maydonlar tog'ning tepasida ham, dasht-adirlarda ham, hatto pasttekisliklarda ham bo'lishi mumkin.

Mahmud Koshg'ariy «qishlanadigan joy» ma'nosidagi *қишлоқ* leksemasiga izoh berar ekan, uning tog'dagi kungay tomonga joylashgan hudud ekanligi, u yerda o't ko'p, qor oz bo'lishi, ekin yaxshi bitishi haqida ham keng ma'lumotlar beradi (Devon, I,308). Demak, mazkur hududning kungay tomonga joylashganligi, u yerda qorning oz bo'lishi o'sha davr kishilarining qishni ana shunday maskanlarda o'tkazishlariga sabab bo'lgan. Bu so'z hozirgi o'zbek tilida «aholisi, asosan, qishloq xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi joy, maskan, hudud» (O'TIL, V, 315) ma'nosini bildiradi.

Urxun yodnomalarida *ulus* so'zi *äl* so'zi bilan birga (*äl ulus* tarzida) «davlat», «mamlakat» ma'nosini bildirgan bo'lsa, IX-X asrlarga kelib *ulus*ning ma'nosi kengaydi, bu so'z mustaqil holda «qishloq, makon» ma'nolarini ifodalaydigan bo'ldi [6;89]. H.Dadaboev «qishloq» ma'nosidagi *ulus* // *ulus* leksemasining Navoiy asarlarida «xalq, omma, saltanat» [2;16-17], «to'jir, savdogar» ma'nosidagi *sart* so'zining «fors-tojik millatiga mansub shaxs», «malika, hukmdor zavjasi» ma'noli *qatun* // *xatun* leksemasining «ayol kishi, xotin» ma'nolarida qo'llanganligini ta'kidlaydi [2;64-66]. Lug'atda *tag'ar* so'zi «bug'doy va boshqa narsalar solinadigan qop» (Devon, I,276) ma'nosida izohlangan. Bu so'z «tarqatmoq, sochmoq, ekmoq» o'zagidan va -(a)r qo'shimchasidan yuzaga kelgan, proto-turk tilidagi shakli *tagar* – «tariq solinadigan qop» bo'lgan [8;109-110]. Hozirgi o'zbek tilida bu so'zning shakli (tog'ora) va ma'nosi o'zgargan bo'lib, u «xamir qorish, kir yuvish va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan katta chuqur to'garak idish» (O'TIL, IV,165) ma'nosini anglatadi.

Hozirgi o'zbek tilida *o'g'il* so'zi faqatgina inson bolasiga nisbatan ishlatiladi. Qadimda esa u «har qanday jonzo'tning bolasi» ma'nosida qo'llangan. Masalan, *Эр оғли муҳазмас, йт оғли қўлапмәс* –It bolasi doim iztirobda qolmaydi, biror tadbir bilan undan qutuladi, it bolasi otdek doim chalqancha yota olmagan kabi (Devon,II,56); *Муш оғли* «mushuk bolasi» (Devon, II,16). DTSda qadimgi turkiy tilda so'zning «bola, o'g'il bola», «o'g'il farzand» ma'nolaridan tashqari, hayvon va qushlarning bolasiga nisbatan ham qo'llanilganligi ta'kidlanadi (DTS,364). Hozirgi kunda o'g'il so'zining DTSda ko'rsatilgan uchinchi ma'nosi iste'moldan chiqqan.

«Devon»da o'g'il so'zidan hosil qilingan *оғлан* leksemasi ham qo'llangan bo'lib, u «bola» va «bolalar» ma'nolarini anglatgan. Shuningdek, asarda bu so'zning «qul» (Devon, II,179) ma'nosini

TILSHUNOSLIK

ham ifodalashi ko'rsatilgan. Til taraqqiyoti natijasida mazkur so'z semantikasida ham o'zgarish yuz bergan. O'g'lon leksemasi 1) er bola, o'g'il, farzand; 2) yosh va jasur yigit, qo'rqmas, botir ma'nolarini hamda 3) atoqli otlar bilan kelib, shaxsning shoh, sulton avlodidan ekanligini bildiradi (O'TIL,V,194). A.Mo'minovaning fikricha, mazkur leksemaning ikkinchi ma'nosi, ya'ni ko'chma ma'nosi shaxsning shoh, sulton avlodidan ekanligini ifodalovchi unvon nomiga aylanishiga olib kelgan, chunki o'g'lon Chingizxon avlodiga mansub, hali xonlik taxtini egallamagan shaxsning unvonini hisoblangan. Masalan: *O'ng so'lida Urus etti javlon, So'lida Oqmuhammad o'g'lon* (Shayboniynoma) [4.14].

Og'lan so'zining «sulton avlodidan bo'lgan shaxs yoki shahzoda» hamda «qul» ma'nolari hozirgi o'zbek tilida mavjud emas.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qadimgi turkiy tilda qo'llangan ayrim leksemalarning eski turkiy tilda boshqa ma'no, eski o'zbek adabiy tiliga kelib boshqa ma'no yoki hozirgi o'zbek tilida tamoman boshqa ma'no kasb etish holatlarini kuzatishimiz mumkin. So'zning semantik taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlar tilga xos ijobiy hodisa sifatida baholanadi *lug'otit turk» asarida qo'llangan bir qator leksemalar misolida yoritildi. Eski turkiy tilda jigit, kəjik, jilki, cırır, эрўк, алқış, амач, кəcək, эрқək, köl, қўшлар, јайлар, орлан kabi leksemalar iste'molda bo'lgan. Til taraqqiyotining keyingi davrlariga kelib mazkur leksemalarning tarkibida ma'lum semantik o'zgarishlar yuz bergan. So'z ma'no taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlar tasniflash, tavsiflash, qiyoslash va lingvistik tahlil usullari asosida yoritildi. So'z ma'nolarini izohlashda bir qator lug'atlarga murojaat qilindi. Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, H.Dadaboyev, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, B.Abdushukurov, Sh.Usmanova, Sh.Egamova, A.Mo'minova kabi olimlarning so'z ma'nosining kengayishi va torayishi yuzasidan bildirgan fikrlari tahlil qilindi, munosabat bildirildi, bu hodisa o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiq obyekti bo'lmagani ta'kidlandi.*

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Abdushukurov B.B. XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar: Filol.fan.nomz. ...diss. – Toshkent, 1998 (Abdushukurov B.B. XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar: Filol.fan.nomz. ...diss. – Toshkent, 1998).
- 2.Dadaboyev X. Obshestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya. –Tashkent: Yozuvchi, 1991 (Dadaboev X. Obshestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya. –Tashkent: Yozuvchi, 1991).
- 3.Dadaboyev H. «Devonu lug'otit turk»ning til xususiyatlari. Toshkent, 2017 (Dadaboev H. «Devonu lug'otit turk»ning til xususiyatlari. Toshkent, 2017).
- 4.Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2010. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2010.
- 5.Mo'minova A. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. Filol.fan. nomz. ...diss.avtoref. –Toshkent, 2000 (Mo'minova A. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. Filol.fan. nomz. ...diss.avtoref. –Toshkent, 2000).
- 6.Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009 (Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009).
- 7.Sulaymonova F. Sharq va G'arb (Qadimiy davr va o'rta asrlar madaniy aloqalari). –Toshkent: O'zbekiston, 1997 (Sulaymonova F. Sharq va G'arb (Qadimiy davr va o'rta asrlar madaniy aloqalari). –Toshkent: O'zbekiston, 1997).
- 8.Usmanova Sh.Oltay tillarida mushtarak maishiy leksika. Filol. fan. d-ri ...diss. avtoref. – Toshkent, 2011 (Usmanova Sh.Oltay tillarida mushtarak maishiy leksika. Filol. fan. d-ri ...diss. avtoref. – Toshkent, 2011).
- 9.Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi (struktur-grammatik, funksional-semantik aspektlarda). Filol.fan.nomz. ...diss.avtoref. –Toshkent, 2007 (Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi (struktur-grammatik, funksional-semantik aspektlarda). Filol.fan.nomz. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2007).